

DARMANA SHUVOQ - FLORES CINAE O'SIMLIGINING
MORFOLOGIYASI, KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDA
QO'LLANILISHI

Sadoqat Raximjonova

Farg'ona Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda dunyoda 500 mingga yaqin yuksak o'simliklar ma'lum bo'lib, ularning 5% farmakologik faolligi aniqlangan dorivor turlar hisoblanadi. Hozirda mavjud farmakologik preparatlarning 60% dorivor o'simliklardan olinsada, ko'pgina turlarining xom ashyosi yetarli emas. Shunga ko'ra, farmatsevtika sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun istiqbolli dorivor turlar resurslarini aniqlash va ularni etishtirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Darmana shuvoq, yarimbuta, barg va mayda shoxchalar, santonin, sineol, pinen, terpinen, terpineol.*

Аннотация: *сегодня в мире известно около 500 тыс. высших растений, 5% из которых являются лекарственными видами, фармакологическая активность которых установлена. Хотя 60% существующих в настоящее время фармакологических препаратов получают из лекарственных растений, сырья для большинства видов недостаточно. Соответственно, выявление ресурсов перспективных лекарственных видов для обеспечения фармацевтической промышленности сырьем и разработка путей их выращивания имеют важное научно-практическое значение.*

Ключевые слова: *полынь лекарственная, полукустарник, листовая и мелколистная, сантонин, цинеол, пинен, терпинен, терпинеол.*

Annotation: *today about 500 thousand high plants are known in the World, 5% of which are medicinal species with a pronounced pharmacological activity. Although 60% of currently available pharmacological preparations are obtained from medicinal plants, the raw materials of most species are insufficient. Accordingly, it is of important scientific and practical importance to identify the resources of promising medicinal species and develop ways to grow them in order to provide the pharmaceutical industry with raw materials.*

Keywords: *Darmana Wormwood, Yarrow, leaf and small twigs, santonin, sineol, pinen, terpinen, terpineol.*

Inson hayotini ona tabiat, uning ajralmas qismi bo'lgan o'simliklar dunyosisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson doima o'simliklar bilan birga, uning bebaho in'omlaridan bahramand bo'lib yashaydi.

Mangu tabiat bag'ridagi yashil dunyo tiriklik manbayidir. Tabiat voyaga yetklazgan har bir niholini ona bolasini e'zozlagandek avaylaydi. Uning unib-o'sishiga, barq urib yashnashiga va nasl qoldirib, asrlar osha barhayot bo'lib kelishiga hamisha ko'maklashadi.

Ko'hna tabiat mahsuli bo'lmish o'simliklar insonni oziqlantirishi, kiyintirishi, estetik zavq berishi bilangina emas, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zida mujassamlantirgan ichki dunyosi, aql bovar qilmaydigan ajoyib biologik xususiyatlari bilan bizni o'ziga rom etib keladi.

Insoniyat qadimdan kasalliklarni davolash vaularning oldini olishda tabiatning in'omi – o'simlik dunyosidan foydalanib kelgan. Masalan, qadimdan Hindiston o'zining ajoyib dorivor "sehrgar" o'simliklari bilan mashhur. Bundan to'rt ming yil avval hindistonliklar v turli kasalliklarga davo bo'ladigan yuzdan ortiq o'simliklarni bilganlar.

Qadim zamonning mashhur tabiblari Gippokrat, Dioskorid, Galen va boshqalar dorivor o'simliklardan keng foydalanganlar.

O'simlikning nomi. Darmana shuvoq — *Artemisia cina* Berg., astradoshlar — Asteraceae (murakkabguldoshlar — Compositae) oilasiga kiradi. Bo'yi 40—70 sm ga yetadigan yarimbuta. Ildizi 1,5—2 m uzunlikda bo'lib, bir qancha mayda ildizchalarga shoxlangan. Poyasi bir nechta, qizg'ish rangli, tik o'suvchi yoki yuqoriga ko'tariluvchi, biroz qiyshiq, pastki qismi yog'ochlangan, yuqori qismi shoxlangan. Bargi oddiy, ikki marta patsimon ajralgan.

Barg bo'laklari kalta, chiziqsimon. Poyaning patski qismidagi barglari bandli, yuqori qismidagilari esa bandsiz, poyada ketmaket joylashgan. Gullari savatchaga to'plangan. Savatchalar ro'vakni tashkil etadi.

Mevasi — kulrang, tuxumsimon pista. Avgust-sentabr oylarida gullaydi, mevasi oktabrning ikkinchi yarmida yetiladi.

Geografik tarqalishi. Yovvoyi holda faqat Janubiy Qozog'istonning Chimkent viloyatida hamda Tojikistonning shimoliy tumanlaridagi tekis va tog'li yerlarda, cho'llarda, daryo-vodiyalarida, soyliklarda va suv bo'ylarida o'sadi.

Mahsulot tayyorlash. O'simlikdan ikki xil mahsulot tayyorlanadi: serbargli ustki qismi va ochilmagan g'unchalar. Yerustki qismini iyul oyining boshlarida (o'simlik bargi yashil paytida) o'simlikning yog'ochlanmagan qismi o'roq bilan o'rib olinadi. G'unchalari esa avgust oyining ikkinchi yarmida, o'simlik barglari to'kilib ketgan davrda yig'iladi. G'unchalarni yig'ish uchun ham o'simlikning yuqori qismi o'rib olinadi.

Yig'ilgan mahsulotni 1—2 kun to'plab, so'ng yaxshilab quritiladi va maydalab, yog'och qismidan ajratib olinadi. Natijada ikki xil: barg va mayda

shoxchalar aralashmasi hamda g'unchalardan iborat toza mahsulot hosil bo'ladi.

O'simlikning asosiy ta'sir etuvchi birikmasi — santonin, ayniqsa, darmana g'unchasida ko'p to'planadi. Darmana gullay boshlashi bilan santonin juda kamayib ketadi, mevada mutlaqo qolmaydi. Shuning uchun gullagan o'simlikdan mahsulot tayyorlanmaydi.

Tayyorlangan mahsulot santonin olish uchun farmatsevtika zavodiga yuboriladi. G'unchadan iborat mahsulotning bir qismi qayta tozalanib, darmana urug'i — Semen Cinae (g'uncha urug'iga o'xshaydi, lekin bu nom botanika nuqtayi nazaridan to'g'ri emas) nomi bilan dorixonalarga yuboriladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot ikki marta patsimon ajralgan barglar va maydalangan shoxchalar aralashmasidan hamda alohida savatchaga to'plangan gul g'unchalaridan iborat.

Savatcha juda mayda, tuxumsimon, o'tkir uchli, sariqyashil yoki qo'ng'ir-yashil rangli bo'lib, 10—20 ta cherepitsasimon joylashgan o'rama bargdan hamda 3—6 ta ikki jinsli, naychasimon, ochilmagan gullardan tashkil topgan. Savatchaning uzunligi 2—4 mm, eni 1—1,5 mm. Mahsulotning o'ziga xos hidi va achchiq yoqimli mazasi bor.

Kimyoviy tarkibi. G'unchalar tarkibida 2,5—7% gacha asosiy ta'sir etuvchi birikma — santonin bo'ladi. Poyasining yuqori qismi va barg aralashmasida esa 5,4% gacha (1, 75% dan kam emas) santonin bor. Mahsulot tarkibida santonindan tashqari 1,5—3% gacha efir moyi, achchiq moddalar, olma va sirka kislotalar uchraydi.

G'unchalar tarkibidagi santonin miqdori 2,5% dan kam bo'lmasligi kerak. Darmananing efir moyi 70—80% sineol, pinen, terpinen, terpineol, kamfora, karvakrol, seskviterpen spirti — seskviartemizol va boshqa birikmalardan iborat.

Santonin xloroform, benzol, yog' va efir moyida hamda qaynoq spirtida yaxshi erib, sovuq spirt va suvda yomon eruvchi oq rangli kristall modda.

Ishlatilishi. Gul g'unchasi va uning preparatlari dumaloq gijjalar (ayniqsa, askaridalar) ni haydash uchun ishlatiladi.

Mahsulotdan olingan efir moyi — darminol bakteritsid ta'sirga ega. U antiseptik dori sifatida hamda bod, nevrалgiya va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Efir moyidan olingan gvayazulen yallig'lanishga qarshi kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun bronxial astma, bod, ekzema va boshqa kasalliklarni hamda rentgen nuri ta'sirida kuygan joylarni davolashda ishlatiladi.

Dorivor preparatlari.Santonin (kukun — poroshok va tabletka holida ehiqariladi), gul g'unchasi (murabbo, asal, qand va sharbat bilan birga iste'mol qilinadi), efir moyi — darminol, gvayazulen.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. —Toshkent, 1993.
2. KursanovA. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyev M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Usmonxodjayev A., Basitxonova E., Pratov O', Djabbariv A. O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2018.
6. Oripov.R.O, Xalilov.N.X. O`simlikshunoslik –Toshkent, 2007.
7. Pratov.O`P, Nabiyev.M.M. O`zbekiston yuksak o`simliklarning zamonaviy tizimi –Toshkent, 2007.